XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 7 - mart VI-42-36-11-158-K/23 Rishton tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli karori ijrosi yuzasidan tumandagi ko‘p kvartirali uylarning xar bir metr kvadrati uchun oylik “Majburiy badal” miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarorining 7-bandi “e” kichik bandi ijrosini taminlash uchun tumandagi ko‘p kvartirali uylarning boshqaruvchilari tomonidan 2023 yilda ko‘p kvartirali uylarning xar bir metr kvadrati uchun oylik “Majburiy badal” miqdorini 400 (to‘rt yuz) so‘m etib belgilab 2022 yilga nisbatan o‘zgartirishsiz qoldirish taklifi bildirilgan.

Sessiya kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Rishton tuman “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” bo‘limi boshlig‘i M.Qo‘ziboyevni tumandagi ko‘p kvartirali uylarning xar bir metr kvadrati uchun oylik “Majburiy badal” miqdorini belgilash to‘g‘risidagi Axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman xududidagi ko‘p kvartirali uylarning xar bir metr kvadrati uchun

oylik “Majburiy badal” miqdorini 400 (to‘rt yuz) so‘m etib belgilab 2022 yilga nisbatan o‘zgarishsiz koldirish to‘g‘risidagi taklif ma’qullansin.

3.Tuman “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” bo‘limi boshlig‘i M.Qo‘ziboyev va ko‘p kvartirali uy-joylari mavjud bo‘lgan MFY raislariga: xududlarda mavjud ko‘p kvartirali uylarning xar bir metr kvadrati uchun oylik “Majburiy badal” miqdorini 400 (to‘rt yuz) so‘m etib belgilanganligini boshqaruvchilar va mulkdorlarga yetkazish va ushbu badalni undirishda yaqindan yordam berish vazifalari yuklatilsin.

4.Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” bo‘limi boshlig‘i M.Qo‘ziboyevga, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soxa va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissmiyasi (Q.Aminov) ga yuklatilsin.

Tuman hokimi **С.Солиев**